

*XVI Xalqaro konferensiya*  
*XVI Международная конференция*  
*XVI International Conference*  
*II Hamdo 'stlik forumi*  
*II Форум содружества*  
*II Commonwealth Forum*

**FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA BIZNESDA  
INTERNET VA AXBOROT-KUTUBXONA  
RESURSLARI**

**ИНТЕРНЕТ И ИНФОРМАЦИОННО-  
БИБЛИОТЕЧНЫЕ РЕСУРСЫ В НАУКЕ,  
ОБРАЗОВАНИИ, КУЛЬТУРЕ И БИЗНЕСЕ**

**INTERNET, INFORMATION AND LIBRARY  
RESOURCES IN SCIENCE, EDUCATION,  
CULTURE AND BUSINESS**

*Central Asia – 2023*  
*24 – 26-May, Май, May*

*Konferensiya materiallari*  
*Материалы конференции*  
*Conference Proceedings*

Alisher Navoiy nomidagi  
O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti  
Toshkent – 2023

**UO‘K: 004.78:025.4.036 (100)**

**KBK: 78.30(0)**

**F 24**

**“Fan, ta’lim, madaniyat va biznesda Internet va axborot-kutubxona resurslari», Xalqaro konferensiya materiallari “Central Asia – 2023, Buxoro).**

“Fan, ta’lim, madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxona resurslari”, xalqaro konferensiya materiallari «Central Asia – 2023», Buxoro, 24–26- may, 2023 [Matn] = Информационно-библиотечные ресурсы в науке, образовании, культуре и бизнесе = Internet, information and library resources in science, education, culture and business / tuzuvchilar: A. Qilichboyev; D. Rasuleva; muharrir: U. Teshabayeva, F. Ro‘ziyeva, – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2023. – 495 b.

**TASHKILY QO‘MITA:**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi  
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi  
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Professional ta’lim tizimini  
rivojlantirish departamenti  
O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi  
O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi  
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi  
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi  
O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi  
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi asosiy kutubxonasi  
O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi  
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti  
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari  
universiteti  
O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi O‘zbekiston Respublikasining  
Birinchi Prezidenti Islom Karimov nomidagi Ilmiy-ma’rifiy memorial majmua

**AXBOROT KO‘MAGI:**

INFOLIB – axborot-kutubxona jurnali

KutubxonaUZ jurnali

Veb-sayt: [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)

Alisher Navoiy nomidagi  
O‘zbekiston Milliy kutubxonasi  
nashriyoti, 2023 y.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida foydalanuvchilar musiqiy asarlarga yoki ularning istalgan qismiga tezkorlik bilan kirishni va musiqa asari ustida notalari bilan birga ishlashni xohlashadi. Ularga texnologiyalar asosida to'liq va tezkor ma'lumotlar yetkazib berish, fondan masofadan turib foydalanishlari uchun barcha o'quv adabiyotlar elektron shaklga o'tkazilib, kutubxona veb-sayti ([arm.uzmmsi.uz](http://arm.uzmmsi.uz)) va telegram kanali ([tm/uzmmsi\\_arm](https://t.me/uzmmsi_arm)) orqali hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Oliy ta'lim tizimidagi "Elektron kutubxona" platformasiga ([unilibrary.uz](http://unilibrary.uz)) joylanib, foydalanuvchilarga yetkazib berilmoqda. Bundan tashqari "O'zbek bastakorlari va kompozitorlari asarlaridagi maqom san'ati" loyihasi doirasida Jahon bankining moliyaviy ko'magi bilan Maqom san'ati bo'yicha ilmiy va o'quv materiallarini o'z ichiga olgan Maqom fondining onlayn kutubxonasi ([maqomfund.uz](http://maqomfund.uz)) institutda faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar, talabalar hamda musiqa sohasiga qiziquvchi foydalanuvchilarga maqomga doir manbaalar yetkazib beradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zMMSI Respublika miqyosida milliy musiqa san'ati sohasida tayanch oliy dargoh sifatida ushbu soha rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi O'zbekistonda yetuk, malakali va albatta, yangi kadrlar tayyorlashdek muhim va dolzarb vazifa ushbu institut tomonidan munosib ado etilayotgani tahsinga sazovor. Kelgusida, institutimiz faoliyati yanada kengayib, O'rta Osiyo miqyosida salohiyatli mutaxassislar yetishtirib berishi, xalqaro aloqalarning yanada kengayishi va shu sohadagi qardosh xalqlar bilan o'zaro hamkorlik rishtalarini rivojlantirish orqali ajdodlardan meros bo'lib bizgacha yetib kelgan bebaho milliy musiqiy xazinamizni dunyo miqyosiga olib chiqish va unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizda milliy musiqaga muhabbat va qiziqish uyg'otish va rivojlantirish ishlari amalga oshajak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- [1]. Янги Ўзбекистон газетаси веб-сайти: <https://yuz.uz/uz>
- [2]. Ражабов, Исҳоқ. Мақомлар/ И. Ражабов; Муҳаррир Н. Норматов. – Тошкент: "San'at", 2006. – 404 б.
- [3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son Farmoni. <https://lex.uz/>
- [4]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 2-sentabrdagi 536-son qarori. (O'zbekiston Milliy axborot agentligi internet sahifasi: <https://uza.uz/>)
- [5]. "Maqom" ilmiy-uslubiy jurnali 2022 yil 1-son

#### **ARXIV FAOLIYATINI IJTIMOY TARMOQLARDA TARG'IB ETISHDA XORIJ VA O'ZBEKISTON TAJRIBALAR TAHLILI**

*Ungalov Sanjar,*

*"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti"  
Milliy tadqiqot universiteti, Raqamli ta'lim texnologiyalari bo'limi boshlig'i*

*Mazkur maqola arxiv faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ibot etish jarayonini axborot bilan ta'minlash vositalarini yaratishning an'anaviy va zamonaviy usullari tahlili, ulardan foydalanish texnologiyasi, shuningdek O'zbekistonda va jahonda foydalanish holati to'g'risida umumiy tushuncha beriladi.*

*Kalit so'zlar: arxiv, faoliyat, ijtimoiy tarmoq, targ'ibot.*

#### **ANALYSIS OF FOREIGN AND INDEPENDENT EXPERIENCES IN PROMOTING ARCHIVE ACTIVITIES IN SOCIAL NETWORKS**

*Ungalov Sanjar,*

*Head of Department of Digital Education Technologies, National Research University  
"Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers"*

*This article provides an analysis of traditional and modern methods of creating means of providing information to the process of promoting archival activities in social networks, the technology of their use, as well as a general understanding of the state of use in Uzbekistan and the world.*

**Keywords:** archive, activity, social network, promotion.

Arxiv faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib etish xorij tajribasida 2006- yillarga borib rivojlana boshladi[1]. Birlashgan Arab amirliklarida Arxiv va yozuvlar boshqarmasida birinchilardan bo'lib "Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish strategiyasi" ishlab chiqildi. Strategiyaning asosiy maqsadi arxiv materiallari va arxiv faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib qilishda ijtimoiy tarmoqlarda rioya qiladigan qoidalar, boshqaruvni tashkil etish, xodimlarni o'qitish ko'rsatmalari beriladi. Birlashgan Arab amirliklari tadqiqotchilari Lina Bountouri va Georgios Giannakopouloslar ma'lum qilishicha o'n ikkita arab milliy arxivlarida va Bahrayn, Jibuti, Saudiya Arabistoni, Ummon sultonligi, Sudan, Iroq, Falastin, Liviya, Misr kabi davlatlarda ijtimoiy tarmoq sahifalari qisman borligini ma'lum qildi. Kanada arxivlarida axborot xizmati ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish istisno holatlarda uchraydi. Arxiv faoliyatini targ'ib qilish asosan veb sayt yoki elektron pochta orqali amalga oshiriladi.

Arxivlar faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib etish strategiyasi Birlashgan Arab amirliklari, AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada va Frantsiyada mavjud[2][6].

1-jadval. Jahon yetakchi milliy arxivlarning ijtimoiy tarmoqlarda sahifalari soni

T/r	Ijtimoiy tarmoq platformalari	Milliy arxivlar					Jami
		AQSH	Buyuk Britaniya	Fransiya	Kanada	Australiya	
1	Facebook	36	3	2	4	1	46
2	Twitter	18	7	3	4	1	33
3	Blogs	13	1	2	2		18
4	Instagram	10	1	1		1	13
5	Tumblr	8					8
6	YouTube	2	1	1	2	1	7
7	Pinterst	4	1	1		1	7
8	Flickr	2	1		2	1	6
9	Podcasts	3	1		2		6
10	Spotify	1	1	1	2		5
11	Historypin	1	1			1	3
12	Wikimedi		1	1			2
13	LinkedIn		1				1
14	Google+	1					1
15	Dailymotin			1			1
16	Foursquare	1					1
17	Giphy	1					1
18	Google Play	1					1
	Jami	102	20	13	18	7	160

Jadvalda (1-jadval) yetakchi davlatlarning milliy arxivlari ijtimoiy tarmoq sahifalari o'rganildi. Arxiv muassalarining ijtimoiy tarmoqlarda eng ko'p sahifasi facebook ijtimoiy tarmog'iga to'g'ri kelib Amerika Qo'shma Shtatlarida 36 ta sahifa mavjud. O'rganishlarda

ijtimoiy tarmoqlarning ko‘plab turlaridan foydalanilgan bo‘lib twitter, Instagram, youtube kabi yirik ijtimoiy tarmoqlar ham o‘rin olgan.

O‘zbekistonda arxivlarning paydo bo‘lishi bevosita uning uch ming yillik davlatchilik tarixi bilan bog‘liq. O‘rta Osiyo hududida qadimgi dunyo madaniyatining manbalaridan biri bo‘lgan davlatchilikning tashkil topishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy hayotida aks etgan, ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi bilan birga bo‘lgan. Ma‘lumki, yozuvning paydo bo‘lishi asta-sekinlik bilan arxiv ishining shakllanishiga ham olib keldi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra uning shakllanishiga talablarning o‘sishi, ya‘ni davlat boshqaruvchilari bilan bir qatorda mahalliy aholining axborotlarni to‘laqonli qayd etilishi va uzatilishi, keyinchalik imkoniyatlardan kelib chiqib uning asl holatini tiklashga bo‘lgan ehtiyojlari katta ta‘sir ko‘rsatdi. O‘rta Osiyoning arab xalifaligi tomonidan bosib olinishi va arabografik yozuv tizimiga o‘tgandan so‘ng, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish sharoitida an‘anaviy saroy, diniy va shaxsiy arxivlar bilan bir qatorda idoralarda – devonlar, kutubxonalar va madrasalarda ham hujjatlarni jamlash va saqlash rivojlangan. Bugungi kungacha saqlanib qolgan O‘rta Osiyo hukmdorlari arxiv hujjatlarida asosan ma‘lum mukofotlar berish to‘g‘risidagi yozuvlar, soliqlarni yig‘ish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, soliqlarni to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov qog‘ozlari, iqtisodiy tushdagi turli xil yozishmalar va kamdan-kam hollarda hujjatlar nusxalari yoki boshqa ma‘lumotlar mavjud. Hukumdorlarning (xon va amirlar) devonxonalarida ularning faoliyatini o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi hujjatlar mavjud edi. Shu bilan birga, Xiva xonligi davrida, Buxoroda bo‘lgani kabi, ish yuritish va hujjatlarni saqlash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan devonbegi, parvonachi, kitobdor, shotir kabi lavozimlar faoliyat ko‘rsatar edi. Arxivni zamonaviy ma‘noda, unda O‘rta Osiyoda mutaxassislar bilan ishlaydigan alohida, maxsus bo‘lim sifatida tashkil etish g‘oyasi faqatgina XIX asr oxirida shakllangan. Shunday qilib, 1870 yildan boshlab viloyat kengashlari qoshida maxsus idoraviy arxivlar tashkil etildi. Mahalliy milliy muassasalar: Qozon va Biysk sudlari, oqsoqollar idoralari faoliyati natijasida to‘plangan hujjatlar ish xonalarida saqlanar edi[3]. O‘zbekiston Respublikasi O‘zarxiv agentligi tarkibida 3 ta Milliy arxiv, 14 ta Arxiv ishi hududiy boshqarmalari, 101 ta davlat arxivi, 123 ta shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari mavjud bo‘lib bulardan barchasi hozirgi kunda o‘z faoliyatini yuritmoqda [4].

2-jadval. O‘zbekistonda milliy va hududiy boshqarmalar web saytlar tahlili

T/r	Arxiv nomi	Arxiv rasmiy veb sayti	Ijtimoiy tarmoqlarda faol sahifalari
1	“O‘zarxiv” agentligi	<a href="https://www.archive.uz">https://www.archive.uz</a>	Facebook, Telegram, Instagram, Odnaklasniki, Youtube
2	O‘zbekiston Milliy arxivi	<a href="http://www.mda.uz">www.mda.uz</a>	-
3	O‘zbekiston Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi	<a href="http://www.ntmd.uz">www.ntmd.uz</a>	Youtube, Telegram, facebook
4	O‘zbekiston Kinofotofono hujjatlari Milliy arxivi	<a href="http://www.kinofotofono.uz">www.kinofotofono.uz</a>	Telegram, Facebook, Instagram
5	Andijon viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi	<a href="http://www.andijonarxiv.uz">www.andijonarxiv.uz</a>	-
6	Buxoro viloyat arxiv ishi boshqarmasi	<a href="http://www.buxoroarchive.uz">www.buxoroarchive.uz</a>	-

7	Jizzax viloyat arxiv ishi boshqarmasi	www.jizzaxarchive.uz	-
8	Qashqadaryo viloyat arxiv ishi boshqarmasi	www.qasharxiv.uz	-
9	Qoraqalpog‘iston Respublikasi arxiv ishi boshqarmasi	www.karakalpakstanarchive.uz	-
10	Navoiy viloyat arxiv ishi boshqarmasi	www.navoiarxiv.uz	Telegram
11	Namangan viloyat arxiv ishi boshqarmasi	www.namarchiv.uz	-
12	Samarqand viloyat arxiv ishi boshqarmasi	www.samarchive.uz	-
13	Surxondaryo viloyat arxiv ishi boshqarmasi	www.fararchive.uz	-
14	Toshkent viloyat arxiv ishi boshqarmasi	www.toshvil.archive.uz	-
15	Xorazm viloyat arxiv ishi boshqarmasi	www.khorezmarchive.uz	-
16	Sirdaryo viloyati Arxiv ishi hududiy boshqarmasi	www.sirdaryoarchive.uz	-
17	Toshkent shahar Arxiv ishi hududiy boshqarmasi	www.toshkent.archive.uz	-
18	Farg‘ona viloyati Arxiv ishi hududiy boshqarmasi	www.fararchive.uz	-

O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki O‘zbekistonda milliy arxivlar veb saytlari to‘liq ishlamoqda, Youtube, Telegram, facebook ijtimoiy tarmoqlarda sahifalari faoliyat yuritmoqda lekin ijtimoiy tarmoqlar faoliyati tizimli tashkil qilinmagan. O‘zbekistonda hududiy arxiv boshqarmalari o‘n to‘rttani tashkil qiladi.

Hududiy arxiv boshqarmali saytlarining 71.5 foizi ish holatida emas, ijtimoiy tarmoqda sahifa bilan yakka holda Navoiy viloyat arxiv ishi boshqarmasi egallaydi. Hududiy arxiv boshqarmalarida ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ibot 7.14 foizni tashkil etmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hugo Quisbert, A Framework for the Development of Archival Information Systems, <https://www.dissertations.se/dissertation/c4aeb53ca8/>
2. Georgios Giannakopoulou, Lina Bountouria, The Use of Social Media in Archives 2014.07 <https://www.sciencedirect.com/>
3. "O‘zbekiston arxiv xizmati 100 yoshda" kitob albomidan
4. O‘zbekiston respublikasi "O‘zarxiv" agentligi rasmiy veb sayti <https://www.archive.uz/>
5. GlobalStats xalqaro statistika sayti. <https://gs.statcounter.com/>
6. National Archives & Records Administration (USA). "Social Media Strategy FY17–20," accessed May 16, 2019, <http://usnationalarchives.github.io/social-media-strategy>